

PUDRAT SHARTNOMASI

2022 й. «30» 8

1305-3-46-TB/2022-

СОН

III.

Sharof Rashidov tuman Tibbiyot birlashmasi (keyingi o‘rinlarda “Buyurtmachi” deb yuritiladi) nomidan **Byudjet** asosida faoliyat yurituvchi rahbari **B. Danoboyev** va “**ORZU KAPITAL NUR**” MCHJ keyingi o‘rinlarda “Pudratchi” deb yuritiladi) nomidan **Nizom** asosida faoliyat yurituvchi rahbari **N. Muxiddinov** mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

LOT № 22110012140460

1. Shartnoma predmeti

1.1. Pudratchi o‘z zimmasiga buyurtmachining topshirig‘iga ko‘ra mazkur shartnomaning 1.2.-bandida ko‘rsatilgan ishlarni bajarish va uning natijasini buyurtmachiga topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa ishlarning natijasini qabul qilib olish va buning uchun haq to‘lash majburiyatini oladi.

1.2. Pudratchi keyingi o‘rinlarda “Ishlar” deb ataladigan quyidagi ishlarni bajarish majburiyatini oladi:

Sharof Rashidov tuman Tibbiyot Birlashmasiga qarashli Yuqumli kasalliklar bo‘limi binosini Joriy tamirlash ishlarini sifatli bajarish

Ko‘rsatilgan ishlarni bajarish uchun buyurtmachi 2022 yil « 26 » avgustga qadar pudratchiga zaruriy loyiha-smeta xujjatlari, texnik shartlar taqdim etish majburiyatini oladi.

1.3. Pudratchi ishlarni o‘zining materiallaridan, o‘zining asbob-uskunasida va o‘zining instrumentlari bilan bajaradi.

1.4. Ishlarni bajarish muddati: Buyurtmachi tomonidan dastlabki 30 % avans, **99 169 200 (To‘qson to‘qqiz million bir yuz oltmish to‘qqiz ming ikki yuz so‘m)** so‘m mablag‘i ajratilgan kundan boshlab 20 kun ichida amalga oshiradi.

1.4.1. Ishlar buyurtmachi yoki uning vakolatli vakili tomonidan ishlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolanganidan keyin bajarilgan deb hisoblanadi.

1. Majburiyatlarning bajarilishi muddati

2.1. Buyurtmachi pudratchiga shartnoma umumiy qiymatining 30 %i miqdorida bunak tulovlarini amalga oshiradi. Ishlarni qabul qilishda aniqlangan nuqson va kamchiliklarni bartaraf etish ishlari to‘liq hajmda bajarilgandan so‘ng buyurtmachiga bajargan ishlar uchun oxirgi, uzil-kesil, hisob-kitobni amalga oshiradi.

2.2. Mazkur shartnoma G‘aznachilik organlarida ro‘yxatdan o‘tgandan so‘ng kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabr gacha amal qiladi.

3. Taraflarning huquq va majburiyatlari

3.1. Pudratchining majburiyatlari:

3.1.1. Ishlarni lozim bo‘lgan sifatda bajarish.

3.1.2. Ishlarni mazkur shartnomaning 1.4.-bandida ko‘rsatilgan muddatda bajarish.

3.1.3. Ob‘yektga loyixaga binoan zarur bulgan materiallarni, konstruksiyalarni, butlovchi ashyolarni yetkazib berish va ularni qabul qilish, tushirish, taxlash hamda saqlashni amalga oshirishi;

3.1.4. Ushbu shartnoma buyicha ishlarni bajarish uchun jalb qilinadigan maxsus tashkilotlar bilan subpudrat shartnomalarini tuzgani tug‘risida buyurtmachiga axborot berishi va u tomondan ishlarning bajarilishi yuzasidan nazoratni ta‘minlashi;

3.1.5. Ishlarning natijasini buyurtmachiga topshirish.

3.1.6. Agar pudratchi ishlarni bajarish jarayonida shartnoma shartlaridan ishlarning sifatini yomonlashtirishga olib keladigan chetga chiqishga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, buyurtmachining talabiga binoan aniqlangan barcha kamchiliklarni 10 kun ichida tekinga bartaraf etish.

3.1.7. Texnika xavfsizligi, yong‘in xavfsizligi va ob‘yektni qo‘riqlash bo‘yicha zaruriy chora-tadbirlarning bajarilishini ta‘minlashi;

3.1.8. Ishlarni shaxsan bajarish.

3.2. Pudratchi quyidagi huquqlarga ega:

3.2.1. Buyurtmachi tomonidan mazkur shartnomaning 3-bandida ko‘rsatilgan hak to‘lash majburiyati bajarilmaganda, pudratchi ishlarning natijasini ushlab turish huquqiga ega.

3.3. Buyurtmachining majburiyatlari:

3.3.1. Pudratchidan ishlar tugallanganligi haqida xabarnoma olgandan keyin 5 kun ichida yoki mazkur shartnomaning 1.4-bandida ko‘rsatilgan muddat tugaganda, ishlarning natijasini ko‘rib chiqish va qabul

qilish, ishlarning natijasini yomonlashtiradigan shartnomadan chetga chiqishlar yoki ishlardagi boshqa kamchiliklar aniqlanganda, bular haqida pudratchiga darhol xabar berish.

3.3.2. Ishlarning natijalarini qabul qilgan paytdan mazkur shartnomaning 3-bandida ko'rsatilgan hisoblashishlar tartibi bo'yicha ishlar uchun haq to'lash.

3.4. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

3.4.1. Har qanday vaqtda pudratchining faoliyatiga aralashmagan holda u tomonidan bajariladigan ishlarning borish jarayoni va sifatini tekshirish.

3.4.2. Buyurtmachi ish natijasi o'ziga topshirilgunga qadar istagan vaqtda shartnomadan voz kechib, belgilangan bahoning buyurtmachi shartnomani bajarishdan voz kechganligi to'g'risidagi xabarnoma olingunga qadar bajarilgan ishlar qismiga mutonosib qismini pudratchiga to'lash. Bunda burtmachi pudratchiga shartnomaning bekor qilinishi tufayli yetkazilgan zararni bajarilgan ishning bahosi bilan hamma ish uchun belgilangan baho o'rtasidagi farq doirasida to'lashi ham shart.

4. Shartnomaning bahosi va hisoblashishlar tartibi

4.1. Mazkur shartnomaning bahosi **330 564 000 (Uch yuz o'ttiz million besh yuz oltmish to'rt ming) so'mni tashkil qiladi.**

4.2. Buyurtmachi tomonidan pudratchiga shartnoma bahosini to'lash bajaruvchining mazkur shartnomada ko'rsatilgan hisob-kitob hisobvarag'iga pul mablag'larini ko'chirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

5. Taraflarning javobgarligi

5.1. Pudratchi mazkur shartnomaning 1.4-bandida ko'rsatilgan ishlarni bajarish muddatini buzganligi uchun buyurtmachiga shartnoma summasidan 0,4 % miqdorda jarima va har bir kechiktirilgan kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar bahosining 50 foizdan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

5.2. Bajarilgan ishlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun buyurtmachi pudratchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

5.3. Mazkur shartnomada ko'zda tutilmagan taraflarning javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiluvchi fuqarolik qonunchiligi me'yorlariga muvofiq qo'llanadi.

5.4. Neustoyka to'lash taraflarning ular oldida turgan majburiyatlarini bajarishdan yoki shartlarning buzishini bartaraf etishdan ozod etmaydi.

6. Fors-major xolatlari

6.1. Hech bir taraf ikkinchi taraf oldida o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra va yengib bo'lmay kuch mavjud bo'lgan taqdirda ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlari bo'yicha javobgar emas. (Urush e'lon qilinishi yoki boshlanishi, fuqarolar tartibsizligi, epidemiya, embargo, yer qimirlashi, suv toshqini, yong'in va boshqa tabiiy ofatlar shular jumlasidandir.)

6.2. Bartaraf kilib bulmaydigan kuchlarning mavjudligi yoki amalda davom etayotganligini O'zbekiston Respublikasi Hukumatining shunga oid qarorlari yoki boshqa vakolatli organlar tomonidan berilgan guvoxnomalari uning yetarli darajadagi tasdiq'i bo'lib hisoblanadi.

6.3. O'z majburiyatini bajarmagan taraf shartnoma buyicha majburiyatni bajarishga uning ta'sir ko'rsatishi yoki monelik qilishi to'g'risida boshqa tarafga imkon qadar tezda xabar berishi lozim.

7. Nizolarni hal etish tartibi

7.1. Mazkur shartnomani bajarishda yuzaga keladigan nizolar va kelishmovchiliklar taraflar o'rtasida imkon qadar muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

7.2. Nizolarni taraflarning muzokaralari yo'li bilan hal etish imkoni bo'lmagan taqdirda, taraflar kelishmovchiliklarni bartaraf etish borasida qonunchilikda ko'zda tutilgan sudgacha bo'lgan jarayonlarni amalga oshirilganlaridan so'ng ularni Jizzax shahrida joylashgan Jizzax viloyat iqtisodiy sudida ko'rib chiqishga topshiradilar.

8. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi

8.1. Ushbu shartnomaga har qanday kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar yozma ravishda rasmiylashtirilib, har ikkala taraf imzolanib, G'aznachilik organlarida ro'yxatdan o'tgandan so'ng haqiqiy kuchga ega bo'ladi.

8.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish taraflarning kelishuvi buyicha yoxud O'zbekiston Respublikasining amaldagi Fuqarolik kodeksi va qonun xujjatlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha, yetkazilgan zararlarni qoplash bilan amalga oshirilishi mumkin.

8.3. Buyurtmachi quyidagi hollarda shartnomani bekor qilishga haqli:

-Pudratchining aybi bilan ishlarning borishini sustkashlik bilan tuxtatib turilishi, ya'ni ushbu shartnomadagi ishlarning tamom bo'lish muddati bir oydan ko'pga oshib ketganda;

-Pudratchining shartnoma shartlarini buzishi natijasida loyihada ko'rsatilgan ishlarning sifati pasayganda.

8.4. Pudratchi qo'yidagi hollarda shartnomani bekor qilishga hakli:

-Buyurtmachi tomonidan pudratchiga bog'liq bo'lmagan sabablar buyicha qurilish-montaj ishlarining borishini bir oydan oshadigan muddatga to'xtatib turganda;

-Buyurtmachi tomonidan keyinchalik ishlarni moliyalash imkoniyati yo'qotilganda.

8.5. Buyurtmachi va pudratchining birgalikdagi qarori buyicha shartnoma bekor kilinganda, buyurtmachiga tugatilmagan qurilish topshiriladi, buyurtmachi esa pudratchiga ular tomonidan aniqlangan bajarilgan ishlarning hajmi kiyamatini tulaydi.

8.6. Shartnomani bekor kilishga qaror kilgan taraf boshqa tarafga yozma xabarnoma yuboradi.

9. Boshqa qo'shimcha shartlar :

Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bogliq korruptsiyaviy xarakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

9.1. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l ko'yilmaganligini, taklif etilmaganligini ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda buturdagi harakatlarni amalga oshirishi xarakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirilmaganligini) kafolatlaydi

Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi xarakatlarni sodir etmasdigi yuzasidan oqilona chorlar ko'radi.

9.2. Taraflar davlat xizmatchilari, siyosiy partiyalar, shuningdek o'zining ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan harkanday vaqt vas haklda qo'yidagi harakatlarni bevosita yoki bilvosita (shujumlardan, uchinchi shaxslar orqali) sodir etilishiga yo'l qo'ymaydi:

a) nazorat qiluvchi organlardan litsenziya va ruxsatnomalar olish, soliqsolish, bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish, sudda ish ko'rilishi, qonunchilik jarayoni va boshqa sohalarida qonunga xilof ravishda tijorat yoki boshqa tUSDagi ustunlikkarga bo'lish yoki saqlab qolish maqsadida yuqoridagi shaxslar foydasiga yoki ular tomonidan moddiy yoki nomoddiy naf olishning taklif etilishi, va'da qilinishi, berilishiga;

b) qonunga xilof ravishda olingan daromadlarning legallashtirilishiga, shuningdek, agar mulk jinoiy faoliyatdan olingan daromad ekanligi taraflarga ma'lum bo'lsa, uni o'tkazish, mulk aylantirish yoxud almashtirish yo'li bilan uning kelib chikishiga qonuniy tus berish, bunday pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etishi ko'chirish usulini, pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan huquqiy egalik xuquqlarini yoki uning kimga qarashliligini yashirishga;

v) korruptsiyaga oid xuquq buzarluk sodir qilish uchun ta'magirlik qilish, undash, tazyiq o'tkazish yoki taxdid qilish. Ushbu xolat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darxol xabardor qilishi shart.

9.3. Taraflar tovarlar, xizmat va ishlarni realizatsiya qilish va o'tkazishda, bitimlar tuzish bo'yicha muzokaralar olib borishda, litsenziya, ruxsatnomalar va boshqa ruxsat etish xususiyatiga ega bo'lgan xujjatlarni olishda yoki ularning manfaatlarini ko'zlab boshka xarakatlarni amalga oshiruvchi taraflarning nazorati ostida bo'lgan va ularnomidan xarakatkidadigan shaxslarga (shujumlardan, yordamchi pudratchilar, agentlar, savdo vakillari, distribyuterlar, huquqshunoslar, hisobchilar, ular nomidan xarakat qiluvchi boshqa vakillarga) nisbatan quyidagi xarakatlarni amalga oshirish shart:

-korruptsiyaviy xarakatlarga yo'l qo'yib bo'lmasligi va korruptsiyaviy xarakatlarga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish ishartligi xaqida ko'rsatmalar va tushuntir ishlar berish;-ulardan korruptsiyaviy xarakatlarni amalga oshirish uchun vositachi sifatida foydalanmaslik;

- ularni faqat tarafning oddiy kundalik faoliyati jarayonidagi ishlab chiqarish zaruratidoinasidan kelib chiqib ishga jalb qilish;

- ularga qonunchilik doirasida amalga oshirgan xizmatlari uchun belgilangan xaq miqdoridan asossiz ravishda ortiqcha to'lovlarni amalga oshirmaslik.

9.4. Taraflar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan xarakat qiladigan shaxslar tomonidan korruptsiyaga qarshi ko'shimcha shartlarda belgilangan majburiyatlar buzilganligi holatlari xaqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq utkazilmasligini kafolatlaydilar.

9.5. Agar bir tarafga boshqa tarafning korruptsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarning 9.4 va 9.5-bandlarida belgilangan majburiyatlarni buzilishiga yo'l qo'yganligi ma'lum bo'lib qolsa, ikkinchi taraf buni ham zudlik bilan xabardor qilishi va ushbu tarafdan oqilona muddatichida tegishli choralar ko'rilishini va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan unga xabardor qilishini talab qilishi shart.

Tarafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoida buzarluklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilonamuddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari xaqida xabardor qilmagantaqdirda, ushbutaraf shartnomani bir taraf lama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga xaqli

10. Yakuniy qoidalar

10.1. Mazkur shartnomaga kiritiladigan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar, ular faqat yozma shaklda tuzilib, taraflarning bunga vakolatli vakillari tomonidan imzolanib, G'aznachilik organlarida ro'yxatdan utgandan sung haqiqiy hisoblanadi.

10.2. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzildi. Ikkala nusxa aynan bir xil va teng kuchga ega. Taraflarning har birida mazkur shartnomaning bir nusxasi mavjud.

10.2 Shartnomaga ilova

11. Tomonlarning yuridik manzili va rekvizitlari:

«Ijrochi»

"ORZU KAPITAL NUR" MCHJ

(yetkazib beruvchining (pudratchining) nomi)

Manzil: Sh.Rashidov tuman Ziyokor MFY,

Tel./faks

(h/v yoki SHG'H): 20208000705084551001

Bank nomi: АТБ «ХАМКОРБАНК

MFO: 01117

STIR: 306469566

IFUT: _____

Rahbar:

N.Muxiddinov

(lavozim) (F.I.Sh)



(imzo)

«Buyurtmachi»

Sharof Rashidov tuman Tibbiyot birlashmasi

(buyurtmachi nomi)

Manzil: Sh.Rashidov tumani Uch-tepa daxasi

Tel./faks: 99 72-342-13-03

Shg'h* **100022860082127073101054003**

Tashkilotning STIRi: 201 369 784

IFUT: 91511

G'aznachilik bo'linmasining nomi

Sharof Rashidov tumani bo'yicha

G'aznachilik bo'linmasi

YaG'H 23 402 000 300 100 001 010

Bank nomi: Markaziy bankning

Toshkent shahar Bosh boshqarmasi

Hisob-kitob-kassa markazi (HKKM)

MFO: 00 014

G'aznachilik bo'linmasining

STIRi: 201 122 919

Buyurtmachi

Rahbari:

B. Danoboyev

(lavozim) (F.I.Sh)

(imzo)



M.O.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
JIZZAX VILOYATI ADLIYA BOSHQARMASI
SHAROF RASHIDOV TUMAN YURIDIK XIZMAT KO‘RSATISH MARKAZI

131100, Sharof Rashidov tumani, Mustaqillik ko‘chasi, 1-uy.

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUIJJATLARNING QONUN
HUIJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA
HUQUQIY XULOSA**

1. Loyihaning turi: **Shartnoma№**
2. Loyihaning nomi:

Sharof Rashidov tuman Tibbiyot birlashmasi (keyingi o‘rinlarda “Buyurtmachi” deb yuritiladi) nomidan **Byudjet** asosida faoliyat yurituvchi raxbari **B. Danoboyev** va “**ORZU KAPITAL NUR**” MCHJ keyingi o‘rinlarda “Pudratchi” deb yuritiladi) nomidan **Nizom** asosida faoliyat yurituvchi **rahbari N. Muxiddinov** mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

LOT № 22110012140460

ishlarni bajarish uchun buyurtmachi 2022 yil « 26 » avgustga qadar pudratchiga zaruriy loyiha-smeta xujjatlari, texnik shartlar taqdim etish majburiyatini oladi.

Ishlarni bajarish muddati: Buyurtmachi tomonidan dastlabki 30 % avans, **99 169 200 (To‘qson to‘qqiz million bir yuz oltmish to‘qqiz ming ikki yuz so‘m)** so‘m mablag‘i ajratilgan kundan boshlab 20 kun ichida amalga oshiradi.

Mazkur shartnomaning bahosi **330 564 000 (Uch yuz o‘ttiz million besh yuz oltmish to‘rt ming) so‘mni tashkil qiladi.**

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma‘lumot:

Sharof Rashidov tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan 2022-yil 30-avgustda yuridik markazga yuborilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni tuzish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



A.Baratov

**Шароф Рашидов туман Тиббиёт бирлашмасига қарашли Юқумли касалликлар
булими биносини жорий таъмирлаш ишлари бўйича**

ЙИҒИЛИШ БАЁННОМАСИ № 13

2022 йил 30 Август

Ш.Рашидов т.

Биз қуйида имзо чекиб тасдиқловчилар комиссия раиси Шароф Рашидов туман Тиббиёт бирлашмаси раҳбари Б.Данобоев, комиссия котиби бўлим бош ҳисобчиси Ш.Тажиев, аъзолари Правизор:Р.Эсиргапов, Хўжалик мудирлари: З.Караматов, Катта хамшира: Д.Мамараджабова, Пархез хамшира : Қодирова Хусния Шароф Рашидов туман Тиббиёт бирлашмаси биносини жорий таъмирлаш ишлари бўйича 26 август 2022 йил 22110012140460 -сонли ЛОТ билан 330 564 000 (Уч юз ўттиз миллион беш юз олтмиш минг) сўмлик жорий таъмирлаш ишлари тендер танловига қўйилган.

2022 йил 26 Август куни 22110012140460-сонли ЛОТ билан танловда иштирок этган корхоналар ичида **“ORZU CAPITAL NUR”** МЧЖ 330 564 000 (Уч юз ўттиз миллион беш юз олтмиш минг) сўмлик жорий таъмирлаш ишлари бўйича танлов ғолиби бўлган.

Бажариладиган жорий таъмирлаш ишларига 2022 йил 26 август куни танловда ғолиб бўлган **“ORZU CAPITAL NUR”** МЧЖга дастурда шаклланган 140460-сонли баённомасига кўра ЎРҚ 684-нинг 7-8 бандига мувофиқ баённома тузилган 2 (икки) иш куни муҳокамада турди ва ҳеч қандай эътирозлар келиб тушмаганлиги сабабли ушбу **“ORZU CAPITAL NUR”** МЧЖ билан 2022 йил 30 августдаги 1305-3-46-ТВ/2022-сонли пудрат шартномаси тузишга келишилди.

Комиссия раиси:




Б.Данобоев

комиссия котиби:



Ш.Тажиев

комиссия аъзолари:



З.Караматов



Р.Эсиргапов



Д.Мамараджабова



Х.Қодирова

Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 140460 на приобретение Жиззах вилояти Ш.Рашидов туман Тиббиёт бирлашмасига карашли касалликлари булимини жорий таъмирлаш

Способ проведения электронный

Дата 26.08.2022

Время рассмотрения 26.08.2022 17:26

Конкурсная комиссия Жиззах туман Тиббиёт бирлашмаси, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	DANOBOYEV BAXODIRJON BAXRONBEKOVICH	ТТБ бошлиғи	Рахбар
Секретарь комиссии	TAJIYEV SHERALI XABIBULLAYEVICH	Bosh xisobchi	SH.Rashidov TTB
Член комиссии	ESIRGAPOV RAXMIDDIN ABLAKULOVICH	Dorixona mudiri	SH.Rashidov TTB
Член комиссии	MAMARAJABOVA DILFUZA ISMATOVNA	Катта хамшира	Шароф Рашидов ТТБ
Член комиссии	QODIROVA HUSNIYA SINDAROVNA	ТТБ пархез хамшираси	Хамшира
Член комиссии	KARAMATOV ZAKIR SAYDALIYEVICH	ТТБ Хўжалик мудири	Жўжалик ишлари мудири

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 26.08.2022 года № лота 140460.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 95.00 / Весовой коэф. ценовой части: 5.00)

Мин. балл: 50

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по текущему ремонту нежилых зданий
Подробное описание	Жиззах вилояти Ш.Рашидов туман Тиббиёт бирлашмасига карашли касалликлари булимини жорий таъмирлаш
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	335 942 109.00
Стартовая сумма	335 942 109.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Танловда иштирок этадиган корхонанинг молиявий холати

Тип: Текстовое значение

Описание: Баланс. Молиявий натижа

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО Fortuna Plus Umid	40	320000000	20	Экспертная		
ООО ORZU KAPITAL NUR	40	Баланс маълумоти тақдим қилинади	31	Экспертная		
SABINA BIZNES QURILISH	40	Илова қилинади	30	Экспертная		
ДАМИН СОЛИ ХК	40	Маълумот тақдим этилди	21	Экспертная		

Критерий №2 Танловда иштирок этадиган корхонанинг бажарган ишлари тугрисида малумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Акт ввод. Форма 2

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО Fortuna Plus Umid	40	320000000	28	Экспертная		
ООО ORZU KAPITAL NUR	40	Бажарган ишлар малумоти	33	Экспертная		
SABINA BIZNES QURILISH	40	hujjatlar ilova qilinadi	30	Экспертная		
ДАМИН СОЛИ ХК	40	Маълумот тақдим этилди	20	Экспертная		

Критерий №3 Танловда иштирок этадиган корхонанинг мутахассислари тугрисида малумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Ишчилар малумоти

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО Fortuna Plus Umid	20	320000000	14	Экспертная		
ООО ORZU KAPITAL NUR	20	Мутахассислар малумоти	17	Экспертная		
SABINA BIZNES QURILISH	20	hujjatlar ilova qilinadi	18	Экспертная		
ДАМИН СОЛИ ХК	20	Маълумот берилди	14	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
------------------------	-----------------	--------------------	----------------------------	------------------------	----------------------	------------------	-------------------------

			(UZS)				
ООО ORZU KAPITAL NUR	335 942 109.00	330 564 000.00 UZS	330 564 000.00	00.00	330 564 000.00	26.08.2022 15:29:03	04.76
ООО Fortuna Plus Umid	335 942 109.00	320 000 000.00 UZS	320 000 000.00	00.00	320 000 000.00	26.08.2022 10:51:54	04.92
SABINA BIZNES QURILISH	335 942 109.00	315 000 000.00 UZS	315 000 000.00	00.00	315 000 000.00	26.08.2022 16:04:02	05.00
ДАМИН СОЛИ ХК	335 942 109.00	324 180 000.00 UZS	324 180 000.00	00.00	324 180 000.00	26.08.2022 16:27:11	04.86

Итоговая оценка участников включая финансовый части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
ООО ORZU KAPITAL NUR	76.95	4.76	81.71
ООО Fortuna Plus Umid	58.9	4.92	63.82
SABINA BIZNES QURILISH	74.1	5	79.1
ДАМИН СОЛИ ХК	52.25	4.86	57.11

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 140460 от 26.08.2022 года на приобретение Жиззах вилояти Ш.Рашидов туман Тиббиёт бирлашмасига карашли касалликлари булимими жорий таъмирлаш определила победителем:

ООО ORZU KAPITAL NUR
306469566

и резервный исполнитель: SABINA BIZNES QURILISH (302614111)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	DANOBOYEV BAXODIRJON BAXRONBEKOVICH	Согласен	
Член комиссии	ESIRGAPOV RAXMIDDIN ABLAKULOVICH	Согласен	
Член комиссии	MAMARAJABOVA DILFUZA ISMATOVNA	Согласен	
Член комиссии	QODIROVA HUSNIYA SINDAROVNA	Согласен	
Член комиссии	KARAMATOV ZAKIR SAYDALIYEVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП